

Kalkonova Lutfiya Yusufvna,
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim, sport kafedrası
o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XOTIRASI SHAKLLANISHIDA ZARURIY VOSITALAR VA MASHQLAR

Annotatsiya. Xotiraning shakllanishi hamda mustahkamlanishida muhim omillar, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixik rivojlanish, ta'lim-tarbiya jarayonida bola xotirasini rivojlantirishning eng muhim vositalari, mashqlar haqida ushbu maqolada ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur yo'nalishdagi zaruriy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: psixik shakllanish, yosh davri, maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi, xotira, xotira va e'tibor, og'zaki-mantiqiy xotira, mashqlar.

НЕОБХОДИМЫЕ СРЕДСТВА И УПРАЖНЕНИЯ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ПАМЯТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В этой статье даны необходимые рекомендации о факторах формирования и закрепления памяти, психическом развитии детей дошкольного возраста, важнейших средствах и упражнениях развития памяти ребенка в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: психическое формирование, возрастной период, психика дошкольников, память, память и внимание, словесно-логическая память, упражнения.

NECESSARY MEANS AND EXERCISES IN MEMORY FORMATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article offers necessary recommendations on the factors influencing memory formation and consolidation, mental development in preschool children, and the crucial methods and exercises for enhancing a child's memory within the educational process.

Keywords: mental formation, age period, preschool psyche, memory, memory and attention, verbal and logical memory, exercises.

Ma'lumki, inson umri davomida oladigan ma'lumotlarning qariyb etmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda o'zlashtirishi haqida qator manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Bolalar tug'ilishi bilan oq unda psixik shakllanish, rivojlanish boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Oila a'zolari va do'stlari, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlari orqali ular boshqalarga mas'ul bo'lish, tashqi dunyoga qiziqish va yangi qobiliyatlarni o'zlashtirish ishtiyoqini rivojlantirish singari muhim tayyorgarlik ko'nikmalarini o'rganishadi. Ular o'zlarining ota-onalari, bog'chada tarbiyachilari va aka-ukalaridan farqli alohida faoliyat bilan shug'ullanadigan individual shaxslar ekanliklarini anglab boshlaydilar.

Tadqiqotlarga ko'ra, tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan bola shaxsi rivojlanishining ham o'z qonunlari bor. Bu qonunlar psixologiyaning maxsus tarmog'i — bolalar psixologiyasining predmetiga kiradi. Rivojlanish psixologiyasi sohasi inson psixikasi faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishi, takomillashib borishi va o'zgarishi haqidagi metodologik hamda fenomenologik qoidaga amal qiladi. Inson shaxsining tarkib topishi va bilish jarayonlarining rivojlanishi muammosini shaxs psixikasining taraqqiyoti qonunlarini hisobga olmay oqilona hal qilib bo'lmaydi. Shuning uchun XXI asrga kelib «inson omili» masalasi dolzarb mavzuga aylandi.

Yosh psixologiyasi inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu taraqqiyotning bosqichlari to'g'risidagi fandir. Yosh psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning

kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Rivojlanish psixologiyasi ana shu vazifani hal etish bilan amaliy maqsadlarni ro'yobga chiqaradi: ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratishga, uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga, ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, kamolotning turli davrlarini insonning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, yuqoridagi vazifalarni hal qilib bo'lmaydi.

Uch yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Mazkur yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan N.M.Shchelovanov, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jarayonlarini sifat jihatdan ancha o'zgartirib yuboradi. Shunga qaramay, bolaning o'sishiga kattalarning ta'siri, roli etakchiligi qolaveradi, lekin asta-sekin o'sib borishi mustaqilroq bo'lishini ta'minlaydi. Ammo maktabgacha yoshdagi mustaqillik ko'pincha bolaning amaliy faoliyatda uncha kuchli bo'lmagan shaxsiy imkoniyati doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishida, nisbatan oz uchrasa-da, tobelikdan qutulish tuyg'usida ro'yobga chiqadi.

Bolaning mustaqilligi faqat uning jismoniy va aqliy imkoniyatida, kuchi etadigan jarayonga nisbatan o'z munosabatini kattalarning ko'magisiz amalga oshirishida emas, balki o'zining kuch-quvvati, qurbi etmaydigan, muayyan amaliy ko'nikmalarini egallay olmagan turmush muammolarini hal etishida ham ko'rinadi. Mazkur psixologik holatning o'ziga xos jihatlari Elza Keller, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina, E.G'oziyev va N.Sodiqxo'jayevalarning mamlakatimizda, chet ellarda mashhur ona kundaliklarida yoritilgan hamda batafsil tahlil qilingan.

Maktabgacha yoshga qadar bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda kimning ilmiy tadqiqoti va asari bo'lishidan qat'i nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilishi individni kamol toptirishga, shakllantirishga qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Mana shu yosh davrida namoyon bo'ladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlar (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan bo'lib, birinchi navbatda o'jarlik, negativizm, qaysarlik, injiqlik kattalarning bolalar nazarida obro'sizlanishi va qadsizlanishi kabi illatlar bilan bog'liqdir.

Qator ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, shu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari na irodasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi va bularning hammasi boladagi xudbinlik, o'ziga bino qo'yish, aksilijtimoiy mayl, urinish, qaysarlik, rashk kabi illatlarda yaqqol aks etadi.

N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalarning oqilona mulohazalariga qaraganda, bolalardagi injiqliklarning bosh omili atrofdagi odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri, mensimay munosabatda bo'lishidan iboratdir, bizningcha, o'zini tan oldirishga intilish ham bunga sababdir.

Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozning sabablari:

- 1) kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini;
- 2) xohish va istagini mustaqil holda turmushda qaror toptirishga intilishini;
- 3) ayrim ko'zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishini;
- 4) o'z holicha ish tutishni cheklashlaridir.

Kattalar bolaning ra'yiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o'z-o'zidan barham topadi, nizo yoki ixtilofning oldi olinadi.

Oila va bog'chada shaxslararo munosabatlar ilmiy asosga qurilib, oqilona qoidaga suyanilsa va pedagogik odob (nazokat) doirasidan chetga chiqilmasa, yuqorida aytilgan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin emas.

Bolaning yangi ehtiyoj va intilishlari kattalar tomonidan g'ayritabiiy qabul qilinishi ular o'rtasida "anglashilmovchilik"ni keltirib chiqaradi. Unda kattalarning ko'rsatmasi, tavsiyasi, iltimosi, buyrug'i va tazyiqiga qarshilik ko'rsatish tuyg'usi vujudga keladi. Shu tariqa shaxslararo munosabatda ziddiyatlar, ichki nizolar, psixologik inqiroz namoyon bo'ladi. Bularning barchasi "Men davri"ning hosilasi bo'lib, bola shaxs sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi. Inqirozning sabablari har xildir. Inqiroz davrida bolaning kattalarga qarshilik ko'rsatishi ham turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ular

o'tkinchi psixologik holat va hodisaga o'xshaydi. Lekin oila va bog'chada qiyinchiliklarni engish jarayonida bolaning shaxsiga uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri va oqilona yondashish uni inqirozdan ruhan mutlaqo sog'lom olib chiqish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bu xotira muammosidir. Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida maktabgacha yoshdagi bolalarda yodlashning etarli, oqilona usullarini shakllantirish va rivojlantirishga etarlicha e'tibor berilmayapti. Bolalarda yodlash texnikasi o'z-o'zidan shakllanadi va ularning samarasi ko'pincha past bo'ladi. Shu sababli, xotirani rivojlantirish bo'yicha ishlar juda muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standarti ta'lim muassasalari tomonidan maktabgacha ta'limning asosiy umumiy ta'lim dasturini amalga oshirishda majburiy bo'lgan normalar va qoidalarni belgilaydi. Dastur maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishini belgilashi hamda quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak: ularning umumiy madaniyatini shakllantirish, jismoniy, intellektual va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy muvaffaqiyatni ta'minlaydigan ta'lim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, kamchiliklarni tuzatish bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida asosiy rivojlanish va tuzatish usullari o'yin faoliyati hisoblanadi. Turli xil ta'lim tizimlarida o'yin alohida, etakchi mavqega ega. Avvalo, bu o'yin tabiatan bolaning rivojlanish jarayoni bilan juda uyg'un ekanligi bilan bog'liq. Tug'ilgandan to katta yoshgacha bo'lgan bolalar e'tiborining katta qismini o'ynashga bag'ishlaydilar.

O'yin jarayonida tafakkur, idrok, nutq, xotirani shakllantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratiladi - asosiy aqliy jarayonlar, ularning to'g'ri rivojlanishisiz bolaning intellektual rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas. Didaktik o'yinlar asosida bolaning intellektual qobiliyatlari rivojlanadi. Kelajakda ushbu qobiliyatlarning rivojlanish darajasi maktabdagi o'quv jarayoniga katta ta'sir qiladi va shaxsni yanada rivojlantirishda o'z rolini o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirishda didaktik o'yinlar katta ahamiyatga ega. Bolaning xotirasi eng yaxshi faollikda shakllanadi.

Birinchidan, aytilganlar taraqqiyotning ushbu bosqichida uning manfaatlarini, atrofdagi haqiqatga munosabatini belgilaydigan, bolaning atrofdagi odamlar bilan munosabatlarining xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi etakchi yo'nalishdagi faoliyatni anglatadi. Bolaning etakchi faoliyati - bu maktabgacha yoshga xos xususiyatdir. Aynan o'yinda bola xotirasining normal rivojlanishini ta'minlaydigan eng qulay muhit shakllanadi.

Inson xotirasini rivojlantirish muammosi qadimgi davrlardan beri olimlarni qiziqtirib kelgan. Bu sohada mutafakkir va faylasuf Aristotel, fiziolog I.P. Pavlov, Sovet davri psixologlari A.A. Smirnova, N.F. Dobrinin, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn, A.R. Luriyalardir.

Inson xotirasi qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy, eng muhim boblaridan biridir. Ushbu yo'nalishdagi jiddiy o'zgarishlarga qaramay, psixologiya va pedagogika fanida xotirani o'rganish bilan bog'liq savollar hali ham javobsiz qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu bolaga atrofdagi haqiqat bilan tanishish imkoniyatini beradigan barcha aqliy jarayonlarning jadal rivojlanishi davridir. Tabiiy xotiraning qobiliyatlari maktabgacha yoshda eng katta darajada namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshda rivojlanish tezligi bo'yicha xotira boshqa qobiliyatlardan ustun turadi, bola rasmni ko'rib chiqadi, g'ayrioddiy narsalarni ko'radi va hayot yukidan nimadir eslab, mulohaza yurita boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar she'rlarni yodlash, qofiyalar, topishmoqlar, ertaklarni sanash qulayligi ularning tabiiy xotirasining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi. Bola yorqin, chiroyli, g'ayrioddiy va diqqatni jalb qiladigan hamma narsani eslaydi. Bola beixtiyor eslaydi, boshqacha qilib aytganda, u istamay eslaydi. Bolalarning aqliy rivojlanishini kuzatishlar va maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola xotirasi yoshga qarab rivojlanib, hajmi va sifat jihatidan o'zgarib boradi. Xotiraning rivojlanishi bola hayotining turli bosqichlarida uning maqsadlari va atrofdagi haqiqat bilan o'zaro ta'sirining tabiati o'zgarishi bilan bog'liq. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasini rivojlantirishning muhim vaqti shaxsiy xotiralarning paydo bo'lishidir. Ular bolaning hayotidagi muhim voqealarni, uning faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarini aks ettiradi.

Katta maktabgacha yoshda og'zaki-mantiqiy xotira rivojlanadi. 6-7 yoshli bola yodlash paytida semantik aloqalarni o'rnatish uchun so'zdan erkin foydalanadi. So'z yordamida u obektlar yoki hodisalarning ma'lum bir toifasiga murojaat qilib, uni guruhlaydi, mantiqiy aloqalarni o'rnatadi. Bularning barchasi yodlangan materiallar hajmining oshishiga ham yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi xotira rivojlanishining muhim omili shundaki, u bola shaxsi rivojlanishida muhim o'rin tuta boshlaydi. Bola o'zini eslay boshlaydi. O'sib borayotgan bola uchun o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi aloqani anglash muhim va qiziqarli. Uning xotirasi shu tarzda rivojlanib, ichki dunyosi shakllanadi.

Quyida maktabgacha yoshdagi xotirani rivojlantirish xususiyatlarini sanab o'tamiz:

- beixtiyor majoziy xotira ustunlik qiladi;
- xotira, tobora ko'proq nutq va fikrlash bilan birlashib, intellektual xususiyat kasb etadi;
- og'zaki va semantik xotira bilvosita bilishni ta'minlaydi va bolaning bilish faoliyati doirasini kengaytiradi;

- ixtiyoriy xotira elementlari bu jarayonni avval kattalar tomonidan, so'ngra bolaning o'zi tomonidan tartibga solish qobiliyati sifatida shakllanadi;

- eslash jarayonini maxsus aqliy faoliyatga aylantirish, yodlashning mantiqiy usullarini o'zlashtirish uchun muhim shartlar vujudga keladi;

- xulq-atvor tajribasini, bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish tajribasini umumlashtirishning to'planishi sifatida xotirani rivojlantirish shaxsni rivojlantirishga kiradi.

Xotira va e'tiborni rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning eng muhim daqiqalaridan biridir. Bu muayyan ko'nikmalarni (o'qish, hisoblash, yozishni o'rganish) egallashdan ko'ra muhimroqdir. Buning sababi shundaki, diqqatni ma'lum bir vazifaga jamlash, kichik narsalarni payqash va yangi ma'lumotlarni tezda yodlash qobiliyati har qanday sohani o'rganishda bir xil darajada foydalidir.

Bolalarda xotira va e'tiborni qanday rivojlantirish kerak, degan savol tug'iladi. Avvalo, bu bolaning yoshiga bog'liq. Bolalarda xotira va e'tiborni qanday rivojlantirish haqida gapirganda, bolalikdan hammamizga tanish bo'lgan yana bir o'yinni eslash lozim. Siz ikkita rasmni chop etishingiz kerak - "asl" va uning nusxasi, ularda ba'zi elementlar yo'qoladi (yoki yangilari mavjud). Bolaning vazifasi bu ikki rasm orasidagi farqni topishdir.

Eshitish va assotsiativ xotirani ham yaxshilash mumkin. Buning uchun maxsus mashq mavjud. Onam yoki dadam konfet kabi so'zni chaqiradi. Bola tashqi ko'rinishini, obektning ba'zi xususiyatlarini yoki u bilan bajarilishi mumkin bo'lgan harakatlarni tasvirlashi kerak. Konfet bo'lsa, bu "shirin, yaxshi hidli, siz uni chaynashingiz yoki eritishingiz mumkin" degan so'zlar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, eshitish xotirasining rivojlanishiga mashqlar juda yaxshi ta'sir qiladi, bola kattalar tomonidan o'rnatilgan ritmni takrorlaydi (bosadi).

Xotira va e'tiborni rivojlantirishda juda ko'p ta'lim o'yinlari mavjud. Yorqin misol - biz bolaligimizdan beri sevadigan labirintlar. Siz ularni o'zingiz chizishingiz yoki yuklab olishingiz mumkin. Bola qaysi to'pdan kim to'qishini yoki qaysi yo'l qaysi qal'aga olib borishini aniqlashi kerak bo'lgan chalkash o'yinlar ham qiziqish uyg'otadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yaxshi va barkamol xotirasiz inson hayotini tasavvur qilish imkonsizdir. E'tibor qiling-a, biz kuniga necha marta xotiramizdan foydalanamiz: ma'lumotni o'zlashtiramiz, sanalarni, koordinatalarni, voqealarni eslaymiz, bilimlarni bir-birimiz bilan baham ko'ramiz. Afsuski, hammaning xotirasi mukammal holatda emas: ba'zilari hatto oddiy vazifalarni bajarishda ham qiyinchilikka duch keladi. Shu bilan birga, xotira eng muhim kognitiv funksiyalardan biri bo'lib, u o'quv jarayonida bevosita ishtirok etadi. Shuning uchun ota-onalar ham, o'qituvchilar ham maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira va tasavvurni rivojlantirishga katta e'tibor berishi lozim. Eng muhimi, maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy xotirani rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni kutmaslik yaxshiroq. Buning uchun qiziqarli va oson mashg'ulotlar bolani ko'proq qiziqtiradi va sezilarli ta'sirga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi. 2012.
2. Nishanova Z.T., Alimova G.K., Turg'unboyeva A.G', Asranboyeva M.X. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi. -2017. -196-b.
3. Nishanova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. "Psixologik xizmat". – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2014 y.
4. Dusmuxammedova Sh.A. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: Fan va texnologiya markazining bosmaxonasi. -2013. -344-b.